



## BUXORO XONLIGINING SIYOSIY VA MADANIY RIVOJIDA IMOMQULIXONNING TUTGAN O'RNINI VA ROLI

**Sulaymonov Boburjon Dilmurodovich**

Farg'ona davlat universiteti tarix fakulteti  
3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15852674>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Iyul 2025 yil

Ma'qullandi: 07-Iyul 2025 yil

Nashr qilindi: 10-Iyul 2025 yil

### KEY WORDS

*Buxoro xonligi, Imomqulixon, Samarqand, siyosat, Toshkent, Balx, qozoq suloni, Yalangto'sh Bahodir, Jo'ybor xojalari, Muhammad Yusuf Munshiy, hunarmandchilik, me'morchilik, ilm-fan, ta'lim.*

### ABSTRACT

*XVI asrda tashkil etilgan Buxoro xonligi (xonlik sifatida 1533-yil) o'zbek davlatchiligida muhim o'rin egallaydi. Davlatni dastlab Shayboniylar sulolasi (1501-1601), so'ng Ashtarxoniylar (1601 – 1756) sulolasiga mansub hukmdorlar boshqarishdi. Ular ichida Shayboniyxon (1501 – 1510) va Abdullaxon II (1556 – 1598) kabi shayboniy hukmdorlar, Ashtarxoniylardan esa Imomqulixon (1611 – 1642) hukmronligi davrida xonlik yirik markazlashgan davlatga aylanadi. Ashtarxoniylardan Imomqulixonning olib borgan siyosati natijasida davlat hududi kengayib, markaziy hokimiyat kuchaydi va madaniy taraqqiyotga erishildi. Quyidagi maqola orqali shu haqida to'xtalib, ilmiy faktlar bilan mavzu yoritib beriladi.*

Buxoro xonligi Ashtarxoniylar hukmdorlar hukmronligi davrida ham bir qator yuksalishlarni boshdan kechirdi. Ana shunday har tomonlama yuksalishlarni bu sulola uchun boshlab bergan va shuning uchun ham boshqa sulola vakillaridan ko'proq (31 yil) hukmronlik qilgan Imomqulixon o'zining oqilona siyosati bilan tarixda qoldi.

O'zbek davlatchiligi tarixida hozirgi kungacha ko'plab sulolalar hukmron bo'lib o'tgan. Ba'zi sulolalar davrida davlat mavqeyi yuqori ko'tarilgan bo'lsa, yana ba'zilar davrida nisbatan rivojlanishdagi kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin. Bunga esa juda ko'plab holatlar sabab bo'ladi. Davlat mavqeyining qay yo'sinda bo'lishi esa davlat ustida turgan boshliq, hukmdorning olib borgan siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan XVI asr va XVIII asr o'rtalarigacha O'rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan davlatlardan biri bo'lgan Buxoro xonligida ham (ikkita sulola vakillari hukmronlik qilgan) bir nechta mashhur, ilmiy davlat hukmdorlar (xonlar) yetishib chiqdiki, ular davrida mamlakat har tomonlama rivoj topdi. Ana shunday hukmdorlardan biri Imomqulixon (1589 – 1644) edi. Uning hukmronligi davrida (1611 – 1642) xonlikda har tomonlama yuksalish kuzatildi. Eng muhimi, mamlakat Abdullaxon II dan keyin yana markazlashgan davlatga aylandi.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Imomqulixon hukmronligi Buxoro xonligida muhim ahamiyat kasb etganligi uchun ham, uning hukmronlik davri haqida ma'lumot beruvchi bir necha manbalar va ularni o'rganish asnosida bu davr bo'yicha mutaxassis olimlar va ularning asarlari bizgacha yetib kelgan. Biz

o'rganayotgan davr bo'yicha eng muhim manbalardan biri Hofiz Tanish Buxoriyning "Imomqulixonoma" asaridir. "Imomqulixonoma" asarining aynan Hofiz Tanish Buxoriyga tegishlilikini Jumaniyoz Sangirov o'zining olib borgan tadqiqotlarida isbotladi [1;256-266]. Asar fors tilida yozilgan. Asar Imomqulixon davrida yaratilgan, lekin aynan qaysi yillarda yozilganligi noma'lum. Asarda muallif nomi sifatida Suhayl nomi kelganligi uchun ham Suhaylning "Imomqulixonomasi" sifatida qo'llanilib kelingan. Dilorom Sangirova bu manba ustida ish olib borgan va 2008-yil yozgan maqolasida manbani o'rganib, Imomqulixon nasabini Amir Temur bilan bog'langanligini aytib o'tadi.

Yana bir muhim manbalardan biri Mahmud ibn Vali tomonidan yozilgan "Bahr ul-asror" asaridir. Asar muallifi Balx shahrida tug'ilgan, o'z davrining tarixchi va geografi edi. U o'z asarida Imomqulixon hukmronlik davri haqida muhim ma'lumotlar berib o'tadi.

Bu davr haqida ma'lumot beruvchi yana bir muhim manba Muhammad Tolibning "Matlab ut-tolibin" ("Toliblar matlabi") asaridir. Muallif tomonidan asar 1673-yil yozib tugatilgan va XVI-XVII asrda Buxorodagi ahvol va asosan Jo'ybor shayx va xojalarining hayoti va hukmdorlar bilan munosabatiga bag'ishlangan. Buxoro xonlari Jo'ybor xojalari bilan doimo yaxshi munosabatda bo'lishga intilishgan. Chunki ular dinning yirik vakillari va xalq ularning aytgan gaplariga ishonar edi. Imomqulixon ham ular bilan doimo yaxshi munosabatda bo'ldi. Yirik Jo'ybor shayxlaridan bo'lgan Oxund Mulla Hadoniy vafot etganda, hatto, hukmdor Imomqulixon janazaga kelib, jasadni o'z yelkasida ko'targani manbada keltiriladi [2;190].

Eng muhim va bu davr haqida eng ko'p ma'lumotlar uchrovchi manbalardan biri Muhammad Yusuf Munshiy tomonidan yozilgan "Tarixi Muqimxoniy" asaridir. Muhammad Yusuf Munshiy asarni Balx xoni Muhammad Muqimxon buyrug'i bilan yozadi. "Tarixi Muqimxoniy" asari kirish va 3 bobdan iborat. Kirish qismida Chingizxon va mo'g'ullar davridan boshlanib, birinchi bobda Shayboniy davri yoritilgan. Biz o'rganmoqchi bo'lgan davr bo'yicha ma'lumotlar asarning ikkinchi bobida beriladi. Bu bob XVII asrdagi Buxoro tarixini o'rganishda muhimdir.

Hoji Mir Muhammad Salim tomonidan yozilgan "Silsilat us-salotin" ("Podsholar silsilasi") asari ham bu davr haqida muhim ma'lumotlar beradi. Mir Muhammad Salim maskur asarida Imomqulixon buyrug'i bilan Makka shahrida qad roslagan ikkita chorbog' haqida ham xabar beradi [3;624-628]. Xo'ja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk" ("Podsholar uchun dastur") asarida ham bu davr haqida ma'lumotlar uchraydi. Maskur asar 1695-yil yozilgan. Aynan shu manbada keltirilishicha, umrining oxirida Imomqulixonning ko'zi ko'r bo'lib qoladi va ukasi Nadr Muhammadxon bundan foydalanib Balxdan chiqadi va Hisorga yurish boshlaydi. Bu manbada, asosan, davlat rahbarlariga davlatni boshqarish borasida maslahatlar berib o'tilgan.

Bu davrning muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda bir qancha olim va olimalar adabiyotlar, dissertatsiya va maqolalar yozishdi. Ulardan biri ingliz tarixshunos va tadqiqotchi olimi Audrey Burton edi. U o'zining "The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History 1550-1702" ("Buxoroliklar: Sulola, diplomatiya va savdo tarixi (1550-1702)") asarida XVI asr o'rtalaridan to xonlikda Ubaydullaxon II hukmronligi boshlangungacha bo'lgan davrni turli manbalar asosida, mukammal o'rganib chiqdi [4;713]. Yana bir tadqiqotchi Yuri Bregel (1925-2016) bo'lib, u asli Rossiyada tug'ilgan va o'z faoliyatini AQSH da olib borgan. U Buxoroning to'liq tarixini, ya'ni qadimgi davrdan to 1920-yilgacha bo'lgan tarixini o'rganib chiqadi va shu asnoda 8 ta maqola yozadi. Shu

maqolalaridan to'rtinchisi "The Khanate of Bukhara and Khorasan" ("Buxoro xonligi va Xuroson") deb nomlanadi. Bu maqolasida Buxoro xonlarining Xurosonda olib borgan siyosati, yurishlari haqida ma'lumot berib, Imomqulixon hukmronligi davrida Xurosonga yurishlar haqida aytib o'tadi [5;521-524].

Turkiyalik olimlarning tatqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Shulardan biri Sheyda Dumandir. Olima aynan Imomqulixon davri bo'yicha shug'ullandi va "Buhara Hanligi'nda Imamkulikhan dönemi (1611-1642)" deb nomlangan dissertatsiyani yozdi [6;185]. Yana bir turk olimi Selim Serkan O'kten "Buhara hanligi'nin askeri tashkiloti (1500-1868)" nomli asarini yozgan (2018). Asarda Imomqulixon haqida ma'lumot berar ekan, 1613-yil qozoqlarni Movarounnahrdan quvib chiqarib, Toshkent chegara hudud bo'lgani uchun o'g'li Iskandarni u yerga hokim etib tayinlagani haqida ma'lumot beradi [7;388]. Yana bir turk olimasi Inji Yelda Dumlupinardir. U asosan turk tarixi va shu bilan birga Markaziy Osiyo tarixi bilan ham shug'ullanadi. Bu bo'yicha uning "Astrahanîler ve Mangitlar devri Buhara hanligi (1599-1920): Genel hatlariyla kaynaklari ve siyasi tarihi" nomli katta hajmdagi maqolasi mavjud. Maqolada keltirilishicha, Ashtarxoniylar Jo'jining o'g'illarida bo'lgan To'qay Temurxonning avlodlari bo'lgani uchun ham "To'qay Temuriylar" deb ham ataladi [8;199-220].

Rus olimlarining bu davr bo'yicha tatqiqotlari muhim. Ulardan biri Sank-Peterburg davlat universiteti Sharq fakulteti tadqiqotchisi Anton Krillovich Alekseyev bo'lib, uning "Политическая истори Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрап" nomli kitobi bu borada mashhur hisoblanadi. Asarda Mahmud ibn Valining "Bahr al-asror fi manaqib al-axyor" asari asosiy manba sifatida tanlab olingan va Ashtarxoniylar sulolasining paydo bo'lgan paytidan to uning to'liq ag'darilishigacha bo'lgan davri yoritilgan [9;231]. Yana A.A.Semyonov, V.Bartold, V.Grigorev va B.V.Luninning ham tatqiqotlari bu davrni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tarixshunosligida ham Ashtarxoniylar davrini o'rganishga salmoqli hissa qo'shilgan. Bu borada B.Ahmedov, A.Ziyo, H.To'rayev, A.Zamonov, D.Sangirova, R.Muqminova va G.G'ulomovlar o'zlarining tadqiqotlari bilan bu davrning o'rganilishiga salmoqli hissa qo'shishgan. Bu borada yosh tadqiqotchilardan tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Azizbek Musayevning Ashtarxoniylar sulolasiga bag'ishlangan dissertatsiyasi ("Ashtarxoniylar davrida Farg'ona vodiysida yuz bergan siyosiy jarayonlar tahlili") ham Imomqulixon hukmronligi davrini o'rganishda muhimdir.

### **Natija va muhokama**

Dastlab Imomqulixon shaxsiga to'xtalsak, u bevosita Ashtarxoniylar sulolasiga mansub bo'lib, otasi Abdullaxon II davrida Nishopur viloyati noibi bo'lgan Din Muhammad edi. Otasidan 10 yoshida yetim qolgan va keyinchalik amakisi Vali Muhammad yurt hukmdori bo'lganida, uni Samarqandga hokim etib tayinlaydi [10;39]. Aynan shu voqelar bilan siyosiy maydonga chiqadi. Buning asosiy sababi, Balxni o'z nazoratida saqlash va Imomqulixonni valiahd bo'lishiga yo'l qo'ymaslik edi. Chunki Balx shahri Buxorodan keyingi, mavqeyi jihatdan ikkinchi shahar, Xurosonning markazi edi. Lekin shunday bo'lsa-da, Balxni amirlar yordami bilan egallaydi. Natijada, amaki va jiyan o'rtasida mojaro paydo bo'lib, urushga olib keladi. Vali Muhammadxon siyosatidan norozi bo'lgan amaldorlarning Imomqulixon tomonga o'tib ketishi (eng yaqin sarkardalari ham) 1611-yil ikki o'rtada bo'lib o'tgan jangda Imomqulixonning qo'li baland kelishiga olib keldi va Vali Muhammad qatl qilinib, taxt Imomqulixon qo'liga o'tadi. An'ana bo'yicha, Imomqulixon oq kigizga o'tqazilib, yirik

amaldorlar tomonidan taxtga o'tqaziladi.

Imomqulixon boshqa sulola vakillaridan ancha ko'proq (31 yil) hukmronlik qildi. Bu esa mamlakatda yaxshi siyosat olib borilganini ko'rsatadi. Ingliz ayg'oqchisi A.Vamberi (1832-1913) Imomqulixon hukmronligi davrida kambag'allar qolmaganligi, amaldorlarga nisbatan qattiq siyosat olib borilganligi va hatto kechalari vaziri Nodir devonbegi bilan oddiy xalq kiyimida bozorga chiqib, narx-navoni nazorat qilganligi haqida keltiradi. Tarixchi Muhammad Yusuf Munshiy esa bu haqida ma'lumot berar ekan, zavq bilan "Imomqulixon oyoqlari davlat uzanggisida bo'lgan paytda, na Balxda va na Buxoroda qo'zg'olon va tartibsizliklar bo'lmadi" deb aytadi [10;41]. Aslida ham shunday edi. Mamlakat hududida ancha qattiq siyosat olib borildi.

Imomqulixon mamlakat hududini har tomonlama mustahkamlashga harakat qildi. Shu o'rinda, shimoldan xavf soluvchi qabilalar bilan kurashib, ba'zi hollarda ular bilan yaxshi munosabat olib borishga ham intilgan va qozoq sultoni Eshim sultonning qizi Oyxonimga uylangan [11;195]. Fikrimizcha, bundan u ikkita maqsadni ko'zlagan edi:

Birinchidan, mamlakatning shimoliy chegarasi xavfsizligini ta'minlamoqchi edi.

Ikkinchidan, ulardan Eron shohlariga qarshi kurashda foydalanmoqchi edi.

Bunday holatni biz Vali Muhammadxonning Erondan olib kelgan qo'shiniga qarshi Imomqulixon Buxoro xalqining kurashiga rahbarlik qilib, qozoqlar yordamida eronliklar qo'shinlarini tor-mor etganini ko'rishimiz mumkin [12;158]. Bu kurashda unga yordam bergan qozoq sultoni Eshimxonga Toshkent va Turkistonni berishga majbur bo'ladi. Eshimxonni o'g'li Jonibekka Samarqand yaqinidagi Sog'arj yeri berilgan. Bu davrda Qozoq yerlari Eshimxon boshchiligida kuchli davlatga aylangan edi. Muhim strategik hudud bo'lgan Toshkentning qo'ldan ketishi Imomqulixonga yoqmadi va 1613-yil Talos vodiysida qozoqlar, jung'or (oyrat)lar, qalmoqlarga qarshi bo'lgan jangda uni yengadi va Toshkentni qaytarib oladi. Bu yerga ukasi Iskandar Sultonni hokim etib tayinlaydi. Iskandar sulton esa xarobalarni yaxshilash maqsadida aholidan soliqni ko'paytiradi. Bu esa qo'zg'olonga sabab bo'lib, Iskandar Sulton o'ldiriladi. Shu o'rinda Muhammad Yusuf Munshiy ajoyib ma'lumot keltiradi. Unga ko'ra, Imomqulixon ukasi alimini olish uchun Balxda yana bir ukasi Nadr Muhammadni chaqiradi va otimningning uzangisigacha odam qoni chiqmaguncha aholini qirishni buyuradi. Buni sira iloji yo'q edi. Ulamolar to'planib, mavjud o'ldirilgan odam qonlarini olib kelib, ko'lmak suvga quyishadi va xonni ko'ndirib, u yerdan o'tkaziladi va va'da bajariladi [10;43]. Lekin dindor, din olimlarini hurmat qiluvchi hukmdorning bunchalik qattiqqo'lligi haqiqatdan yiroqroq. Lekin shu yilni o'zida yana boshqa bir qozoq sultoni Tursunxon tomonidan Toshkent egallanadi. Toshkent strategik muhim hudud bo'lganligi uchun ham ko'plab tortishuvlarga sabab bo'lgan. 1628-yilga kelib uzoq tortishuvlardan so'ng Toshkent va aynan shu yili Farg'ona vodiysi ham Ashtarxoniylar davlati tarkibiga to'liq qo'shib olinadi. Bu hududlarni egallashda, bunday og'ir kurashlarda Imomqulixonning sadoqatli amaldorlaridan biri Yalangto'shbiy otaliq bo'lib, u olchin urug'idan chiqqan edi. Yalangto'shbiy Abdullaxon II huzurida tarbiya topgan va yirik sarkarda bo'lib yetishib chiqqan edi. 1636-yilda Yalangto'sh Sayramga yurish qilib, u yerni ham xonlikka qo'shdi. Qozoq sultonligining ancha yerlari Buxoroga qo'shib olindi. Mahmud ibn Vali o'zining "Bahr ul-asror" asarida Turkiston shahri haqida ma'lumot berar ekan "Uni oddiy xalq "Yassi" deb atagan va hozirda Buxoro xoni Imomqulixon nomidan qozoq sultonlari boshqarishyapti" – deb ta'kidlab o'tadi [13.32]. Imomqulixon davrida harbiy yurishlar hatto Dashti Qipchoqqacha davom etdi [11;43-44].

Shunday qilib, Imomqulixon hukmronligi davrida Movarounnahr va Xuroson yagona hukmdor qo'li ostida birlashtirildi (Xorazmda Xiva xonligi). Bu Imomqulixon hukmronligi davrida markazlashgan, yirik davlatning tashkil topganligidan dalolatdir.

Ashtarxoniylar davrida o'zbek jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar shariat va odat huquqlari asosida rivojlanib borgan. Jumladan, qishloq xo'jaligidagi huquqiy odatlar suv, yer o'lchamlari, ularni yuritishda odat huquqiga rioya qilish, hamma joyda yagona, hatto bir odatga emas, qaysi geografik hududda qanday odat bo'lsa, o'shanga rioya qilish haqidagi ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan. Bu masalada yagona bir qonun mavjud emas edi. Ijtimoiy odatlar ichida yana bir muhim odatlardan biri yurtchilik odati edi. Bu odat qarzini to'lay olmagan qarzdorning qarzlarini uning qarindoshlari o'zaro bo'lib olib to'lashlari bilan belgilanadi. Ashtarxoniy hukmdorlari Buxorodagi mahalliy o'zbek qabila boshliqlari kuchiga tayanmay, ularning qo'llab-quvvatlashlarisiz mamlakatni boshqara olmas edilar. Shuning uchun ko'plab yerlarni shahzodalar, ulamo va sayidlar, fuqarolik va harbiy soha ma'murlariga xizmat evaziga suyrug'ol qilib berish bilan birga, harbiy boshliqlarga ham yer mulklarini shu tarzda sovg'a qilish yanada avj oldi [11;243]. Imomqulixon ham bunday ishlarni amalga oshiradi. Masalan, u hokimiyatga kelganda katta mavqega ega bo'lgan "Matlab ut-tolibin" asari muallifi Muhammad Tolibning otasi Tojiddin Hasanxo'jaga singlisi Poyandasultonbegimni va qo'shimchasiga Pirmasp qishlog'i va Huzordan Dehinavgacha yerlarni tortiq qiladi [2;209]. Bundan tashqari, u taxtga o'tirgach ukasi Nadr Muhammadga Balxni tortiq qiladi va taxt vorisi etib tayinlanadi. Chunki Balxda xondan keyingi o'rinda turgan odam hokimlik qila olar edi xolos. Huquqshunos olim Ziyodullo Muqimovni fikricha, "tanho" deb atalgan bunday in'omning huquqiy jihatdan suyrug'oldan farqi shundan iborat ediki, yer mulkini olgan shaxs unga ega hisoblanmasdi, uning huquqi shu yerni ishlaguncha dehqonlardan ma'lum darajada soliq yig'ib olish bilan chegaralangan. Mahmud ibn Vali "Bahr ul-asror" asarida shunday ma'lumot beradi: "Agar podsho yerni kimgadir hadya tariqasida bersa, bunday yerlar ulamolar va sayyidlarga berilsa, suyrug'ol deyiladi, agar harbiylarga berilsa, u holda tanho deyiladi" [13;231]. Yer egaligi ham shayboniylar davridagi munosabatlardan deyarli farq qilmas edi.

Imomqulixon mamlakatni har tomonlama rivojlantirishga harakat qildi va tinchlikni saqlashga urindi. Uning hukmronligi davrida qishloq xo'jaligida ahvol ancha yaxshilandi. Dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. Uning buyrug'i asosida 1614-1615-yillari Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal chiqarildi. Buning natijasida bir qator qishloqlar va qarovsiz qolgan yerlar obod bo'lgan. 1633-yil Qo'shqo'rg'onda ham uning buyrug'i bilan kanal qazilgan [10;50]. Bu sug'orilishi qiyin bo'lgan yerlarda ham dehqonchilik olib borish imkonini berdi. Chorvachilik ham rivoj topgan sohalardan biri edi. Xon va yirik saroy amaldorlari, din peshvolari, qabila boshliqlari, yirik chorvador boylarga tegishli katta-katta yaylovlarda, dasht hududlarida ming-minglab qo'ylar, podalar, yilqilar, tuyalar boqilgan.

Imomqulixon boshqaruvidagi muhim jihatlardan biri – Jo'bor xojalari bilan olib borgan yaqin munosabati edi. Jo'ybor xojalari deyarli butun Buxoro xonligi tarixida muhim mavqega ega bo'lib turdi. Abdullaxon II ning ularga ko'rsatgan yuqori darajadagi iltifotini Imomqulixon davom ettiradi. Xonlik hududida katta mavqega ega bo'lgan bunday shaxslarga muruvvat ko'satish natijasida mamlakat hududi tinch va hududiy jihatdan kengayishida muhim ahamiyat kasb etdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Imomqulixon davrida savdo, hunarmandchilik va hatto bozor munosabatlarida ham ancha yuksalish yuz berdi. Masalan, Samarqand bozorlari haqida manbalarda quyidagicha ta'rif beriladi: "Bu shahaming bitta o'ziga xos xususiyati borki, bu xususiyat boshqa shaharlarda kam uchraydi, ya'ni, har bir mahsulot uchun alohida bozor bo'lib, ular biri-biri bilan aralashib ketmaydi. Bu ajoyib an'anadir". Butun dunyoga mashhur bo'lgan Samarqand qog'ozi ishlab chiqarish ustaxonalari Siyob kanalidan chiqarilgan ariqlar bo'ylarida joylashgan va shu yerdan chet davlatlarga sotilgan [14;231]. Bu davrda me'morchilik ham ravnaq topdi. Imomqulixon me'moriy obidalar qurish ishlariga ham alohida e'tibor berdi. Bu davrda, 1617-yilda Registon maydonida Poyandabiy masjidi barpo etiladi. U Imomqulixonning amirlaridan biri Qosimboy turkmanning o'g'li Poyanda otaliq turkman tomonidan qurilgan. Yana bu davrda o'zbeklarning arlat urug'iga mansub Buxoroning eng badavlat kishilaridan bo'lgan Nodir devonbegi tashabbusi va mablag'i bilan 1619-1620-yillarda bozor maydoni o'rtasida bo'yi 45 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr bo'lgan katta hovuz qurdirib, atrofni shag'al, marmar va toshlar bilan mustahkamlashtiradi [15;34]. 1637-yilda esa Mag'oki Ko'rpa masjidi qad rostlagan. U Shayx Xoja Kalon tomonidan qurilgan bo'lib, Toqi Telpakfurushon yonida, Mehtar Anbar ko'chasida joylashgan. Bu inshoot Buxorodagi ikkita „yerosti“ (mag'oki) masjidlardan biri va UNESCO ro'yxatiga kiritilgan. Nomning ikkinchi qismidagi "Ko'rpa" so'zi esa masjid joylashgan mavze nomi bilan bog'liq. Eng muhimi Imomqulixon Madinada ikki-uch yil yashab, shu shaharda Movarounnahrda borgan ziyoratchilar dam olib ketishlari uchun Chorbog', Makkadagi Ka'baga kiraverish darvozalaridan biriga oltin va kumush tutqichli yog'och zina qurdiradi. Qo'shimchasiga, "Silsilat us-salotin" asarida ma'lumot berilishicha, u Makka shahrida ikkita chorbog' bunyod etgan [3;626]. Imomqulixon nafaqat o'z davlati hududida, balki musulmonlarning muqaddas shaharlarida ham me'moriy obidalar qurib o'z nomini tarixga muhrlagan hukmdor edi.

Shu bilan birga Imomqulixon ilm-fan sohasiga ham o'z hissasini qo'shdi. U she'rklar bitganligi tarixiy manbalarda aks etgan. Bu davrda ta'lim sohasi ham rivoj topdi. XVII-XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab maktablar faoliyat ko'rsatgan. O'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilgan. Yetim-yesirlar bepul o'qitilgan [16;198]. Zamonaviy tadqiqotchilar bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy fanlar rivoji, ayniqsa, adabiyot, tarixshunoslik, falsafiy-huquqiy hamda ijtimoiy-huquqiy yo'nalishlarida sezilarli bo'lganligini ta'kidlaydilar. XVII asrning o'rtalarida ijtimoiy-falsafiy yo'nalishda ijod qilgan yirik vakillardan biri Muhammadjon Yusuf Alqorabog'iy (1563 – 1647) edi. U Kavkazning Qorabog' qishlog'ida tavallud topgan. Ma'lumotlarga qaraganda mavlono Yusuf Qorabog'iy Samarqandda ijod qilib Buxoroda vafot etgan, u adabiyot, astronomiya fanlarini yaxshi bilishi bilan bir qatorda she'rlar ham yozib turgan. Mulloyi Nav taxallusi bilan mashhur bo'lgan. Mavlono chindan ham o'z davrining bilimli kishisi bo'lganligi uchun Imomqulixonning suhbatlarini xush ko'rganligi manbalarda qayd etilgan [17;14]. Imomqulixon shoirlar, darveshlar, olimlar, o'z zamonasining ulug' kishilari bilan suhbat qilishni xush ko'rgan. Muhammad Yusuf Munshiy ma'lumotlariga ko'ra, u so'fiyona she'rlar mashq qilgan.

### **Xulosa**

Xulasa o'rnida shuni ayta olamanki, Imomqulixon davri Buxoro xonligi tarixida eng muhim va ajralmas davr bo'lib qoldi. Xonlik har tomonlama yuksaldi. Davlat mavqeyi ham ancha yuqori edi. 1620-yil Buxoroga kelgan rus elchisi I. Xoxlov Buxoroda Xivadan o'n baravar ko'p qo'shin bor ekanligi va bu qo'shin soni 100 ming atrofida ekanligini ta'kidlaydi [4;157].

Bu esa davlatning harbiy salohiyati ham yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Shunday ilm ahlini hurmat qilgan, davlatni yuksaltirgan, adolatli siyosat olib borgan hukmdorning oxiri ham go'zal bo'ldi. Umrining oxirida ko'zi ko'rmay qolgandan keyin, hokimiyatni ukasi Nadr Muhammadga topshirib, haj safariga otlandi. Uning karvoniga Nodir devonbegi, o'ziga esa otaliq Muhammad Do'st hamroh bo'ldi. Yo'lda safaviylar saroyida mehmon bo'lishadi va hozirgacha yagona bo'lgan Imomqulixon portreti mashhur mo'yqalam sohibi Muin Musavvir tomonidan chizib olingan. Haj ziyorati paytida 1644-yil Arofat tog'ida vafot etadi. Qabri esa Payg'ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi vasallamning oila a'zolari-yu, mashhur sahobiyalar dafn etilgan Madina shahridagi Baqiy qabristoniga joylashtirildi [18;24-37]. Bizning Movarounnahr diyorida tug'ilgan zot uzoq Arabisron diyorlarda qanchlik mashhurlikka erishyapti. Bu albatta, to'g'ri olib borgan siyosati natijasidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Сангиров Ж. А. Хофиз Таниш Бухорийнинг “Имомкулихоннома” асари ва унинг Аштархонийлар тарихини урганишдаги урни // Science and innovation. 2023. 2-сон. – Б. 256 – 266.
2. Абулаббос Мухаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. Таржимонлар: Каримий, Э.Миркомиллов; Масъул мухаррир: т.ф.д Х. Тураев; Тошкент давлат Шаркшунослик институти хузуридаги Абу Рай хон Беруний номли Шарк хулэзмалари маркази. – Тошкент: “Movarounnahr” 2016. – 386 б.
3. Dr. Azamat Ziyov. Silsilat as-salatin as a historical source // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 2021. Issue 11. – P. 624 – 628.
4. Audrey Burton. The Bukharans a dynastic, diplomatic and commercial history 1550 – 1702. – London: “Routledge”, 2019. – 713 p.
5. Bregel Y. The khanate of Bukhara and Khorasan // Encyclopedia Iranica. Vol. V. New York: 2013. – P. 521 – 524.
6. Şeyda Duman. Buhara Hanlığı'nda İmamkulikhan dönemi (1611-1642). Tarih alanında Doktora (PhD) derecesi için sunulan tez. – Afyonkarahisar, 2023. – 185 s.
7. Selim Serkan Ükten. Buhara hanlığı'nin askeri teşkilatı (1500-1868). – Ankara: Neyir Matbaacılık, 2018. – 388 s.
8. İnci Yelda Dumlupınar. Astrahanîler ve Mangıtlar devri Buhara hanlığı (1599-1920): Genel hatlariyla kaynaklari ve siyasi tarihi // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi. 2023. Issue 9. – P. 199 – 220.
9. Алексеев А.К. Политическая истори Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрар. СПб.: Изд-во С. – Петерб. ун-та, 2006. – 231 с.
10. Zamonov A. Buxoro xonligining Ashtarxoniy hukmdorlari [Matn]: monografiya / Zamonov A. – Toshkent: “BAYOZ”, 2021. – 137 b.
11. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi [Matn]: metodik qo'llanma / Zamonov A. Toshkent: “BAYOZ”, 2021. – 266 b.
12. To'raev H. Buxoro tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / To'rayev H. – Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdoni nashriyoti, 2020. – 320 b.
13. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. (География). Введение, пер., прим., указ. Б.А.Ахмедова. Отв. ред. А.К.Аренде. – Ташкент, “Фан”, 1977. – 184 б.

14. Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi II (XIV asrning o'rtalaridan – XIX asr ikkinchi yarmigacha). – Toshkent: "DONISHMAND ZIYOSI", 2020. – 409 b.
15. Ne'matov M. Buxoroda Ashtarxoniylar davri me'morchiligi // Modern Science and Research. №10. 2024. – B. 34 – 37.
16. Ro'ziqulov O., Shodiyorov A. Ashtarxoniylar davrida ilm-fan, madaniy hayot // Innovation in the modern education system. №5. 2024. – B. 198 – 202.
17. Nasrilloev K. Ashtarxoniy hukmdorlarning ilm ahillari bilan munosabatlari // Builders of the future. №2. 2022. – B. 13 – 17.
18. Сангирова Д. Х. Хаж зийорати ва хукмдор хожилар // O'tmishga nazar. 2019. №18. – B. 24 – 37.

